

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI**

XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

**2025-5/1
Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

Xiva-2025

Bosh muharrir:*Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.***Bosh muharrir o‘rinbosari:***Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.***Tahrir hayati:**

<i>Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.</i> <i>Abdullayeva Muborak Maxmusovna, b.f.d., prof.</i> <i>Abduhalimov Bahrom Abduraximovich, t.f.d., prof.</i> <i>Agzamova Gulchexra Azizovna, t.f.d., prof.</i> <i>Aimbetov Nagmet Kalliyevich, i.f.d., akad.</i> <i>Ametov Yakub Idrisovich, b.f.d., prof.</i> <i>Babadjanov Xushnut, f.f.n., prof.</i> <i>Bahodirova Feruza Bahodir qizi, PhD, dots,</i> <i>Bobojonova Sayyora Xushnudovna, b.f.n., dos.</i> <i>Bekchanov Davron Jumanazarovich, k.f.d.</i> <i>Buriyev Xasan Chutbayevich, b.f.d., prof.</i> <i>Gandjayeve Lola Atanazarovna, b.f.d., k.i.x.</i> <i>Davletov Sanjar Rajabovich, tar.f.d.</i> <i>Durdiyeva Gavhar Salayevna, arx.f.d.</i> <i>Ibragimov Baxtiyor To‘laganovich, k.f.d., akad.</i> <i>Izzatullayev Zuvayd, b.f.d., prof.</i> <i>Ismailov Is‘haqjon Otabayevich, f.f.n., dos.</i> <i>Jumaniyozov Otaboy, f.f.d., prof.</i> <i>Jumaniyozov Zoxid Otaboyevich, f.f.n., dos.</i> <i>Jumanov Murat Arepbayevich, b.f.d., prof.</i> <i>Kadirova Shaxnoza Abduxalilovna, k.f.d., prof.</i> <i>Qalandarov Nazimxon Nazirovich, b.f.f.d., k.i.x.</i> <i>Karabayev Ikramjan Turayevich, q/x.f.d., prof.</i> <i>Karimov Ulug‘bek Temirbayevich, DSc</i> <i>Kurbanbayev Ilhom Jumanazarovich, b.f.d., prof.</i> <i>Kurbanova Saida Bekchanovna, f.f.n., dos.</i> <i>Qutliyev Uchqun Otoboyevich, f-m.f.d., prof.</i> <i>Lamers Jon, q/x.f.d., prof.</i> <i>Maykl S. Enjel, b.f.d., prof.</i> <i>Maxmudov Raufjon Baxodirovich, f.f.d., k.i.x.</i> <i>Mirzayev Sirojiddin Zayniyevich, f-m.f.d., prof.</i> <i>Matniyozova Hilola Xudoyberganovna, b.f.d., prof.</i> <i>Masharipova Feruza Jumanazarovna, PhD</i>	<i>Mirzayeva Gulnara Saidarifovna, b.f.d.</i> <i>Najmeddinov Axmad Raxmatovich PhD, dotsent</i> <i>Pazilov Abduvayeit, b.f.d., prof.</i> <i>Razzaqova Surayyo Razzoqovna, k.f.f.d., dos.</i> <i>Ramatov Bakmat Zaripovich, q/x.f.n., dos.</i> <i>Raximov Raxim Atajanovich, t.f.d., prof.</i> <i>Raximov Matnazar Shomurotovich, b.f.d., prof.</i> <i>Raximova Go‘zal Yuldashovna, f.f.f.d., dos.</i> <i>Ro‘zmetov Baxtiyar, i.f.d., prof.</i> <i>Ro‘zmetov Dilshod Ro‘zimboyevich, g.f.n., k.i.x.</i> <i>Ruzmetov Davron Ibrogimovich, PhD</i> <i>Sadullayev Azimboy, f-m.f.d., akad.</i> <i>Salayev San‘atbek Komilovich, i.f.d., prof.</i> <i>Saparbayeva Gulandam Masharipovna, f.f.f.d.</i> <i>Saparov Kalandar Abdullayevich, b.f.d., prof.</i> <i>Safarov Alisher Karimjanovich, b.f.d., dos.</i> <i>Sirojov Oybek Ochilovich, s.f.d., prof.</i> <i>Sobitov O‘lmasboy Tojxmedovich, b.f.f.d., k.i.x.</i> <i>Sotipov Goyipnazar, q/x.f.d., prof.</i> <i>Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, b.f.d., akad.</i> <i>Xolliyev Askar Ergashevich, b.f.d., prof.</i> <i>Xolmatov Baxtiyor Rustamovich, b.f.d.</i> <i>Cho‘ponov Otanazar Otojonovich, f.f.d., dos.</i> <i>Shakarboyev Erkin Berdikulovich, b.f.d., prof.</i> <i>Ermatova Jamila Ismailovna, f.f.n., dos.</i> <i>Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich, b.f.d., prof.</i> <i>O‘razboyev G‘ayrat O‘razaliyevich, f-m.f.d.</i> <i>O‘rozboyev Abdulla Durdiyevich, f.f.d.</i> <i>Hajiyeva Maqsuda Sultonovna, fal.f.d.</i> <i>Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.</i> <i>Xudayberganova Durdona Sidiqovna, f.f.d.</i> <i>Yuldashev Xamza Kamalovich, PhD</i> <i>Zaripova Ranojon Zaripovna, PhD, dotsent</i>
--	--

Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№5/1 (126), Xorazm Ma‘mun akademiyasi, 2025 y. – 286 b. –Bosma nashrning elektron varianti - <https://www.mamun.uz/bulletin>

ISSN 2091-573 X

Muassis: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo‘limi – Xorazm Ma‘mun akademiyasi

To'xtayev Sh.X., Xayrullayev M.F., Norova Sh.Sh., Xaitova L.B. Buxoro viloyati sharoitida bug'doyning zamburug'li kasalliklari tarqalishi, zarari va ularga qarshi kurash choralari	208
Tozaboyeva S.M. Raqamli texnologiyalar yordamida yer kadastrini yuritishning afzalliklari va istiqbollari	211
Urazmetov K.K., Yakubova N.B. Asosiy va takroriy ko'chat usulida ekilgan sholi navlarining o'suv davri	213
Zakirov X.X., Zayirova D.M. Taqir o'tloqi tuproqlarda pomidor yetishtirishda azotli o'g'itlar meyori	216
Zokirov X.X., Qodirov M.S. Xar xil me'yordagi azotli o'g'itlarning ingichka tolali paxta hosiliga ta'siri	219
Zokirov X.X. Taqir – o'tloq tuproqlari sharoitida xar xil me'yordagi azotli o'g'itlarning ingichka tolali paxtaning o'sib rivojlanishi va hosiliga ta'siri	221
Авлиякулов Н.Э. Конкурс нав синаш тажрибасида ингичка толали ғўзанинг тезпишар, серҳосил ва тола сифатига чидамли янги навини яратиш	224
Амантурдиев И.Ф. Ғўзанинг F ₁ -F ₂ дурагайларида тола сифати белгилари орасида коррелятив боғлиқликлар	227
Вафоева М.Б., Абдуазимов А.М. Кузги буғдой озикланиш тизимининг иқтисодий самарадорликка таъсири	230
Норов Б.Н., Суяров А.А. Хориждан келтирилган ғўза навида чатиштириш ишлари ва таҳлил натижалари	233
Нурматов Ш.Н., Рахимов Ж.С. Дефляцияга учраган оч тусли бўз тупроқлар шароитида шамол таъсирининг коэффициенти	235
Раббимов Ф.А. Палецкий черкезининг эфемер ва эфемероид турлар ривожланиш ва ҳосилдорлик кўрсаткичларига таъсири	238
Ражабов З.П. Хорижий тажриба, қишлоқ хўжалигига илмий ёндашув	241
Расулов И.М., Дўстмуродова Х.Х. Гулкарамнинг биологик хусусиятлари, етиштириш технологияси, ва инсон саломатлигида аҳамияти	244
М.Б.Тўхтамуродова, У.И.Рузметов Тўмтоқ баргли сано (<i>Cassia obovata</i> Collad) ўсимлиги ўсиши ва ривожланишига қўлланилган минерал ўғитларнинг таъсири	249
Ҳаёнбоев Ж.Ш., Ҳамдамов Ж.У., Исматуллаев З.Ю., Тошматов С.Д. Фарғона вилояти тупроқ иқлим шароитига мос бўлган соя навларининг биометирик таҳлил натижалари	252
Шокиров Б.Қ. Иситилмайдиган плёнкали иссиқхоналар ва экинлар етиштиришда интенсив усулларда фойдаланиш	254

ТЕХНИКА FANLARI

Sayidova N.K., Karimova B.I. Interpolatsion modellarda nyuton ko'phadlarining samaradorligi va xatoliklarni raqamli baholash usullari	258
Курбанова М.А. Разработка огнестойких материалов с антипиренами, применяемые для деревянных конструкций в жилых помещениях	261
Мавланов Т.М., Тошматов Э.С., Ярашов Ж.А., Махмараимова Г.Б. Методика определения поверхностной силы на оболочечной конструкции	266
Тажибаев Г.Г. Состав и технология высушивания плода лекарственного растения «каперсы колючего – <i>Carparis spinosa</i> L.» и их исследование	269

TIBBIYOT FANLARI

Avliyakulova Sh.M. Geni o'zgartirilgan mahsulotlarning inson salomatligidagi o'rni	273
Saydaliyeva Z.R. Qo'zg'aluvchan muskullarning qisqarish mexanizmi	276
Yuldoshov L.T., Yarmuhammedov J.M., Choriyeva V.T. Yong'oq (<i>Junglas regia</i>) o'simliginin biologik faol moddalari va farmasevtik biotexnologiyasi	279
Юлдашев Н.Б. Бирламчи ОИВ-инфекцияси мавжуд шахслар цитокин статуси кўрсаткичларининг таҳлили	282

Ertangi ekinlar	Takroriy ekinlar
Kartoshka	Karam, ildizmevalar, bodring, avgustda ekilgan piyoz
Karam	Kartoshka, ildizmevalar, bodring, avgustda ekiladigan piyoz
Sabzi	Karam, sholg'om, turp, kartoshka
Osh lavlagi	Sabzi, karam, sholg'om, turp
Bodring, ikki yillik urug'lik ildizmevalar bilan karam	Sholg'om, turp, avgustda ekiladigan piyoz
Ko'katlar (salat, ismaloq, ukrop, selderey va boshqalar)	Kartoshka, sabzavot va poliz ekinlarining hammasi

Yuqorida qayd etilganlardan shuni xulosa qilish mumkinki, agroishlab chiqarish nuqtai nazardan eng yaxshi yerlar maydonini oshirishda, ya'ni tuproq unumdorligini tiklash, saqlash va oshirib borishda quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq: Qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirishda agroklastlar tarkibida almashlab ekish tizimini keng miqyosda joriy qilish; Qishloq xo'jaligi maqsadlariga mo'ljallangan yerlarning, shu jumladan, almashlab ekilgan ekin maydonlarining monitoringini muntazam yuritishni joriy etish; Qishloq xo'jaligi yerlarining monitoringini ta'minlashda geoaxborot texnologiyalarini tatbiq etish, xususan, raqamli "Almashlab ekish xaritalari"ni ishlab chiqarishda qo'llash istiqbolda ijobiy natijalar beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Xalikov B.M., Namozov F.B. Almashlab ekishning ilmiy asoslari. — Toshkent, 2015.
2. Avezbayev S., Volkov S.N. Yer tuzishni loyihalash. — Toshkent, 2004.
3. O'zbekiston Respublikasi yer resurslarining holati to'g'risida Milliy hisobot, 2018.
4. <http://www.lex.uz/docs/3107036>.
5. <https://agronet.uz>
6. <https://daryo.uz/k/2017/02/07/ozbekiston-prezidenti-2017-2021-yillarga-moljallangan-harakat-strategiyasi-haqidagi-farmonni-imzoladi>.

UO'K 632.4.01/.08

BUXORO VILOYATI SHAROITIDA BUG'DOYNING ZAMBURUG'LI KASALLIKLARI TARQALISHI, ZARARI VA ULARGA QARSHI KURASH CHORALARI

Sh.X. To'xtayev, dots., Buxoro davlat universiteti, Buxoro

M.F. Xayrullayev, o'qituvchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Sh.Sh. Norova, talaba, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

L.B. Xaitova, talaba, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Respublikada donli ekinlarning eng xavfli kasalliklariga qarshi kurash choralari samarali usullarini ishlab chiqish vazifasi bugungi kunning muhim masalalaridan biriga aylandi.

Bizning kuzatishlarimiz va tajribalarimiz 2022-2023-yillarda Buxoro viloyatining Buxoro tumani Rabotiqalmoq MFY "Madaniyat Muhammad Ismat" fermer xo'jaligi g'alla ekilgan maydonlarida hamda Ilmiy tadqiqot instituti tajriba xo'jaligida olib borildi. Hududda biz kuzatgan yillarda bug'doy o'simligining sariq va qo'ngir zang kasalliklari uchraganligi tufayli, biz ushbu kasalliklarni va kasallik qo'zg'atuvchi mikroorganizmlarni asosiy kuzatish obyekti sifatida oldik va kasallik belgilarining o'simlikda namoyon bo'lishini kuzatdik.

Kalit so'zlar: sariq zang, qo'ng'ir zang, yosh urediniyalar, zang urediniyalari, epifitotiyalar, qorakuya, un-shudring, septorioz, Entolitur 22,5% em.k., Foliar BT 22,5% em.k., Titul Duo 40% k.e.k.

Аннотация. Задача разработки эффективных методов борьбы с наиболее опасными болезнями зерновых культур в республике стала одной из важных задач современности.

Наши наблюдения и эксперименты проводились в 2022-2023 годах на зерновых полях совхоза «Маданият Мухаммад Исмаи» Работикалмок Бухарского района Бухарской области и в опытном хозяйстве НИИ. В связи с возникновением болезней растений пшеницы желтой и бурой ржавчиной в наблюдаемые нами в регионе годы мы взяли эти болезни и болезнетворные микроорганизмы в качестве основного объекта наблюдения и наблюдали за проявлением симптомов болезни у растения.

Ключевые слова: желтая ржавчина, бурая ржавчина, урединия молодая, урединия ржавчинная, эпифитотия, мучнистая роса, мучнистая роса, септориоз, Энтоликур 22,5% эм.к., Фолиар БТ 22,5% эм.к., Титул Дуо 40% к.к.

Abstract. The task of developing effective methods to combat the most dangerous diseases of grain crops in the republic has become one of the important tasks of our time.

Our observations and experiments were carried out in 2022-2023 on the grain fields of the Madaniyat Muhammad Ismat state farm in Rabotikalmok, Bukhara district, Bukhara region, and in the experimental farm of the Research Institute. Due to the emergence of wheat plant diseases yellow and brown rust in the years we observed in the region, we took these diseases and pathogens as the main object of observation and observed the manifestation of disease symptoms in the plant.

Key words: yellow rust, brown rust, young uredinia, rusty uredinia, epiphytocy, powdery mildew, powdery mildew, septoria, Entolikur 22.5% em.c., Foliar BT 22.5% em.c., Title Duo 40% k.k.

Bug'doyning sariq va qo'ng'ir zang kasalliklarini belgilari

Sariq zang dunyoda barcha bug'doy dalalarining 35% dan ko'prog'ida tarqalgan. Ushbu kasallik iqlimi salqin bo'lgan mamlakatlarda hamda tog'oldi mintaqalar, vodiylar, qir va adirlarda ko'proq, tekisliklarda kamroq uchraydi. [1,2]

Bug'doyning qo'ng'ir zangi kasalligi. Qo'ng'ir zang deyarli barcha bug'doy ekiladigan mamlakatlarda tarqalgan. MDH da uning epifitotiyalari Rossiyaning Krasnodar o'lkasi, Markaziy-Noqoratuproq va Volga bo'yi qismlari, Ukrainaning Polesye mintaqasida sug'oriladigan yerlarda hamda Qozog'istonda, ayniqsa uning shimolida lalmi ekinlarda tez-tez kuzatiladi. O'zbekiston bug'doyzorlarida qo'ng'ir zang deyarli har yili qayd qilinadi. [3,4]

2009-2010-yillar kuzatuvlarida qo'ng'ir zang faqat bir marta – Buxoro viloyati, Vobkent tumanining bitta dalasida 2010 yil 20 aprel kuni uchragan, zararlangan o'simliklar soni o'choqda 10%, zararlanish darajasi esa 1-3% bo'lgan, xolos.

2022-2023-yillarda o'tkazilgan marshrut kuzatuvlarida Buxoro viloyatining bug'doy dalalarida kasalliklar tarqalishi va rivojlanishi hisobga olingan. Bunda Buxoro tumani xo'jaliklarida olib borilgan monitoring kuzatuvlarida, bug'doy yetishtirilayotgan mavsumlarda yilning kelishiga qarab zang kasalliklarini tarqalishi turlicha bo'lganligi qayd etildi. Qolgan tumanlarning ko'p qismlarida bug'doy o'suv davrining ilk bosqichlarida sariq zang ancha keng tarqalgan bo'lsa ham, kasallik kuchli rivojlanishi faqat ayrim xo'jaliklarining ba'zi dalalarida aniqlangan. Tezkor kimyoviy kurash choralari qo'llanilishi tufayli zang kuchayib ketishiga va kasallik hosilga zarar yetkazishiga yo'l qo'yilmagan. Bug'doyning boshqa kasalliklardan qorakuya, un-shudring va septorioz kasalliklari uchramagan.


2022-yilda bug'doy dalalarini nazorat qilish ishlari mart oyining oxirgi dekadasi dan may oyining ikkinchi yarmigacha dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti xodimlari va g'allakor fermerlar ishtirokida olib borildi. Ushbu kuzatuvlarda quyidagi ma'lumotlar olindi.

Buxoro tumanida birinchi kuzatuvlar dalalarda 25-26 mart kunlari o'tkazildi. Bu davrda bug'doy o'simliklarining aksariyati naychalash (1-2 bo'g'in mavjud), faqat bir necha dalada tuplash fazasida edi. Bunda tekshirilgan 3 ta dalaning faqat ikkitasida sariq zangning kichik o'choqlari (25x3 m va 6x3 m) mavjudligi aniqlandi. O'choqlardagi kasal o'simliklar soni 20-30%, rivojlanishi 3-5% ni tashkil qildi va ularga darhol fungisid bilan ishlov berildi. Qolgan dalalarda zang va boshqa kasalliklar topilmadi.

April oyining ikkinchi yarmida tumanning ba'zi dala maydonlarida qo'ng'ir zang ayrim o'simliklarda qayd etilishi aniqlandi. tumandagi ikkinchi kuzatuv 10 may kuni Buxoro tumanining bug'doy dalalarida o'tkazildi. Bunda tekshirilgan 3 ta dalaning 2 tasida sariq zang har xil darajada tarqalganligi, qo'ng'ir zang esa umuman mavjud emasligi aniqlandi. Sariq zang aniqlangan dalalarning aksariyatida kasallik tarqalishi past darajada bo'lib, faqat ayrimlarida rivojlanishi 7-8% ga yetgan. Zang topilgan dalalarning aksariyatiga mavjud fungisidlar (Entolikur 22,5% em.k., Foliar BT 22,5% em.k., Titul Duo 40% k.e.k. va b.) dan biri bilan ishlov berilgan. [5,6]



1-rasm. Bug'doy barglarida sariq zang urediniyalari:
a - yosh urediniyalar, b - barg o'rtacha darajada zararlanishi, v, g - barglar juda kuchli zararlanishi.



2-rasm. Bug'doy barglarida qo'ng'ir zang urediniyalari bug'doy kasalliklari tarqalishi va rivojlanishi
Keyingi kuzatuvlar 15-may kuni, bug'doyning gullash fazasida o'tkazildi. Ilmiy-tadqiqot institutining bug'doy dalalarida sariq zang qayd etildi. Sariq zang rivojlanishi "Madaniyat Muhammad Ismat" fermer xo'jaligida kamroq darajada bo'lib, ayrim dalalarda o'simliklar sariq zangning o'choqlari bilan kuchli

Bug'doyning asosiy kasalliklarining hosildorlikka ta'siri

Dehqonchilik ilmiy tadqiqot institutining tajriba xo'jaligida qayd etilgan bug'doyning sariq va qo'ng'ir zang kasalliklarining hosilga ta'siri, ya'ni ularning zarari ham o'rganildi.

Bug'doy sut pishish davrida sariq zang bilan 54,0% ga zararlanganda sog'lom o'simlikka nisbatan 1000 ta donning mutloq og'irligining kamayishi 26,0% ni, hosil yo'qotilishi esa 20,6% ni tashkil etdi.

Demak, Buxoro tumani sharoitida bug'doyning hosili sariq zang kasalligi tufayli eng ko'p, nisbatan kamroq boshqa zamburug'li kasalliklar ta'sirida yo'qotilar ekan.

Bunda tekshirilgan 3 ta dalaning faqat ikkitasida sariq zangning kichik o'choqlari (25x3 m va 6x3 m) mavjudligi aniqlandi. O'choqlardagi kasal o'simliklar soni 20-30%, rivojlanishi 3-5% ni tashkil qildi va ularga darhol fungisid bilan ishlov berildi. Qolgan dalalarda zang va boshqa kasalliklar topilmadi.

Aprel oyining ikkinchi yarmida tumanning ba'zi dala maydonlarida qo'ng'ir zang ayrim o'simliklarda qayd etilishi aniqlandi. Zang topilgan dalalarning aksariyatiga mavjud fungisidlar (Entolitur 22,5% em.k., Foliar BT 22,5% em.k., Titul Duo 40% k.e.k. va b.) dan biri bilan ishlov berilgan.

Xulosa. Bu kasalliklarning zarari ularning paydo bo'lish davriga, tarqalishiga, o'simlikning zararlanish darajasiga, ekilgan bug'doy navlarining kasallikka chidamliligiga bog'liq bo'ladi. Bug'doyning bayroq bargi hosil bo'lishidan don to'lishi davrigacha kasallikka chidamsiz bo'lgan navlarda hosil yo'qotilishi eng yuqori darajaga yetishi kuzatiladi. O'simlikning butun o'sish davrida kasallikning kuchsiz rivojlanishi yoki mavsum oxirida kasallikning kuchli rivojlanishi bug'doy hosildorligiga kam ta'sir qiladi.

Qo'ng'ir zang kasalligini bug'doy barglarida rivojlanishi 3-chi bargda umuman kuzatilmagan bo'lsa, 1-chi va 2-chi barglarda namoyon bo'lishida deyarli katta farq sezilmadi (5–10% va 5–20%).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktyabrdagi 841-son «2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi qarori.
2. E.A. Xolmurodov, M.A. Zuparov, R.K. Sattarova, N.T. Hakimova, X.X. Nuraliyev, S.E. Avazov., "Qishloq xo'jalik fitopatologiyasi" Toshkent-2014 y. B.71-74
3. Гуз Л.Н. Биекологические особенности развития бурой ржавчины пшеницы (Пуссиния ресондита роб. Ех Десм. ф. сп. тритиси) в республиках Средней Азии т Южном Казахстане //Автореф. канд. дисс.Москва: 1988.- 17 с.
4. Горленко М.В. Ржавчинные грибы хлебных злаков // Защита растений.- 1968.- №3.- С. 29-61.
5. Muxamedov R.L. Bug'doyning un-shudring kasalligi va unga qarshi kurash choralari // O'simliklarni zararkunanda, kasallik va begona o'tlardan himoya qilishning rivojlanish istiqbollari.-Toshkent-2001.- B.104-105.
6. Назарова Л.Н., Фоченкова Т.В., Корнева Л.Г. Сравнительная оценка систем химической защиты пшеницы от бурой ржавчины // Защита растений.- 1992.- № 10.- С.20.

UO'K 551

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA YER KADASTRINI YURITISHNING AFZALLIKLARI VA ISTIQBOLLARI

S.M.Tozaboyeva, talaba, Qarshi davlat texnika universiteti, Qarshi

Annotatsiya. Ushbu maqolada yer kadastrini raqamli texnologiyalar asosida yuritishning afzalliklari va istiqbollari tahlil etilgan. Tadqiqot davomida O'zbekiston va xorijiy davlatlar tajribasi asosida GPS, GIS, dronlar hamda elektron platformalarning amaliy qo'llanilishi o'rganildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli tizimlar yordamida yer maydonlarini o'lchashda aniqlik va tezkorlik oshadi, inson xatolari kamayadi va xizmat ko'rsatish sifati yaxshilanadi. Shuningdek, maqolada mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar berilgan. Raqamlashtirish orqali yer resurslarini boshqarish tizimini zamonaviy bosqichga olib chiqish imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: yer kadastr, raqamli texnologiyalar, GPS, GIS, dronlar, Geoportal, E-kadastr, o'lchov ishlari, elektron boshqaruv, yer resurslari, axborot tizimi.

Аннотация. В статье анализируются преимущества и перспективы ведения земельного кадастра на основе цифровых технологий. В ходе исследования было изучено практическое применение GPS, ГИС, беспилотников и электронных платформ на основе опыта Узбекистана и зарубежных стран. Полученные результаты показывают, что цифровые системы повышают точность и скорость измерения площади земель, сокращают